

## SHIMOL SUKUNATI VA ALP OHANGLARI: SHVETSIYA VA SHVEYSARIYA ETNOLOGIYASI

*Sobirova Dilsora Elmurod qizi*

*Navoiy Davlat Universiteti Tarix fakulteti*

*Tarix ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Shvetsiya va Shveysariya xalqlarining etnologik, antropologik hamda madaniy xususiyatlari qiyosiy tahlil asosida keng yoritiladi. Tadqiqotda har ikki davlatning geografik joylashuvi, tabiiy sharoiti va tarixiy taraqqiyoti, xalq mentaliteti hamda turmush tarziga qanday ta'sir ko'rsatgani ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Maqolada Shvetsiya xalqining skandinav madaniyatiga xos bo'lgan soddalik, tartib-intizom, tabiat bilan uyg'un yashash va "lagom" falsafasi asosidagi hayot tarzi ochib berilgan. Shuningdek, milliy bayramlarning kelib chiqishi, ularning xalq hayotidagi o'rni hamda zamonaviy jamiyatdagi davomiyligi haqida batafsil ma'lumot beriladi. Shved xalqining milliy taomlari, oilaviy qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlaridagi o'ziga xos jihatlar ham maqolada yoritiladi. Bundan tashqari, Shveysariya etnologiyasi ham alohida tahlil qilinib, mamlakatning ko'p millatli va ko'p tilli tarkibi, Alp tog'lari bilan bog'liq madaniy an'analari, milliy bayramlari hamda hududiy urf-odatlarini ko'rib chiqiladi. Maqolada milliy taomlari, tog' madaniyati va xalq musiqasining jamiyat hayotidagi o'rni haqida ham aniq ma'lumotlar beriladi.

**Kalit so'zlar:** Shvetsiya, Shveysariya, etnologiya, antropologiya, skandinav madaniyati, Alp madaniyati, milliy urf-odatlar, milliy bayramlar, lagom falsafasi, ko'p tillilik, etnik tarkib, xalq an'analari, milliy identitet, globallashuv, madaniy meros, Yevropa xalqlari, xalq og'zaki ijodi, milliy qadriyatlar, tog' madaniyati, shimol xalqlari, madaniyatshunoslik.

Har bir xalqning madaniyati uning tarixiy taraqqiyoti, yashash muhiti va ijtimoiy hayoti bilan chambarchas bog'liq. Dunyo xalqlari orasida Shvetsiya va Shveysariya o'zining boy madaniy merosi hamda xalq an'analari bilan alohida ajralib turadi. Ushbu davlatlarning nomlari bir-biriga o'xshash bo'lsada, ularning geografik joylashuvi, milliy qadriyatlari va etnik shakllanish jarayoni mutlaqo farq qiladi.

Shvetsiya shimoliy Yevropada joylashgan bo'lib, sovuq iqlim, keng o'rmonlar va dengiz madaniyati bilan mashhur. Shveysariya esa Markaziy Yevropadagi tog'li hudud bo'lib, Alp tog'lari va ko'p tilli aholisi bilan tanilgan. Shu sababli har ikki davlat etnologiyasi o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Shvetsiya aholisi asosan skandinav xalqlariga mansub bo'lib, ularning madaniyatida soddalik va tartib ustuvor hisoblanadi. Shved xalqining kundalik

hayotida “lagom” tushunchasi muhim o‘rin tutadi. Bu atama ortiqcha dabdabdan qochish, me’yorni saqlash va muvozanatda yashash ma’nosini anglatadi. Shved xalqining ko‘plab bayramlari tabiat bilan bog‘liq. Ayniqsa, Midsommar bayrami yoz faslining eng yorqin ramzlaridan biri hisoblanadi. Ushbu bayramda odamlar gullardan toj yasab, milliy raqslar ijro etadi va tabiat qo‘ynida dam oladi. Lucia kuni esa qish qorong‘usida yorug‘lik ramzi sifatida nishonlanadi. Bu marosimlarda oq kiyimdagi qizlar qo‘shiq kuylab, qo‘llarida sham bilan yuradi. Shvetsiya oshxonasi ham shimoliy tabiat bilan uyg‘unlashgan. Baliq mahsulotlari, kartoshka va go’sht asosiy taomlar hisoblanadi. Kottbullar nomli go’shtli taom dunyo bo‘ylab mashhur bo‘lib ketgan.

Shveysariya etnologiyasi boshqa Yevropa davlatlariga nisbatan murakkabroq hisoblanadi. Mamlakatda nemis, fransuz, italyan va roman tillarida so‘zlashuvchi aholi yashaydi. Shu sababli har bir hududning urf-odatlar va madaniy ko‘rinishlari turlicha shakllangan. Alp tog‘lari shveysariyaliklarning turmush tarziga katta ta’sir ko‘rsatgan. Tog‘ hududlarida chorvachilik va pishloq tayyorlash qadimdan rivojlangan. Fondue va raclette kabi pishloqli taomlar milliy madaniyatning ajralmas qismiga aylangan. Shveysariyada milliy birlikka katta ahamiyat beriladi. 1-avgust kuni nishonlanadigan “Milliy kun” mamlakat mustaqilligi va xalq birdamligi timsolidir. Ushbu bayramda gulxanlar yoqilib, tog‘ hududlarida xalq sayillari tashkil etiladi.

Shvetsiya va Shveysariya xalqlari orasida ayrim umumiy jihatlar mavjud. Har ikkala jamiyatda ham mehnatsevarlik, tartib-intizom va tabiatga hurmat muhim qadriyat sanaladi. Shu bilan birga, ular o‘rtasidagi farqlar ham sezilarli. Shvetsiya aholisi etnik jihatdan nisbatan bir xil bo‘lsa, Shveysariya ko‘p millatli davlat hisoblanadi. Shved madaniyatida sokinlik va minimalizm ustun bo‘lsa, shveysariyaliklar hayotida hududiy madaniyatlar xilma-xilligi muhim o‘rin egallaydi.

Bugungi globallashuv davrida ko‘plab xalqlar milliy qadriyatlarini saqlab qolishga intilmoqda. Shvetsiya ham, Shveysariya ham zamonaviy texnologiyalar va xalqaro madaniy ta’sirlarga qaramay, o‘z an’analari asrab kelmoqda. Milliy bayramlar, xalq musiqasi va an’naviy taomlar yosh avlodni tarixiy ildizlarga bog‘lab turuvchi muhim omil hisoblanadi. Shu sababli etnologiya fani nafaqat tarixiy, balki zamonaviy madaniy jarayonlarni tushunishda ham katta ahamiyatga ega.

**Xulosa** qilib aytganda, Shvetsiya va Shveysariya etnologiyasi Yevropa xalqlarining rang-barang madaniy olamini namoyon etadi. Shimolning sokin va tartibli hayoti bilan Alp tog‘larining serjilo madaniyati bir-biridan farq qilsa-da, har ikkisi ham insoniyat madaniy merosining muhim qismi hisoblanadi. Ularning urf-odatlar, milliy qadriyatlari va xalq an’analari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Vahobov A. Skandinaviya mamlakatlari tarixi va madaniyati. – Toshkent: Sharq, 2021. – 91–103-betlar.

- 2.Rasulov S. Zamonaviy Yevropa davlatlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022. – 134–142-betlar
- 3.Karimov Q. Etnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 45–52-betlar.
- 4.Ahmedov B. Jahon xalqlari madaniyati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 78–86-betlar.
- 5.Jo‘rayev N. Yevropa xalqlari etnologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2019. – 112–125-betlar.